

BOSH MUHARRIR MINBARI

**ADABIYOT DARSLARIDA REDYARD KIPLINGNING "MAUGLI" ASARINI
O'RGANISH METODIKASI**

Qunduzxon HUSANBOYEVA.

ORCID: 0000-0002-4125-9049.

Pedagogika fanlari doktori, professor.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası, tarix va filologiya fakulteti,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti.

Toshkent shahri, O'zbekiston.

E.mail: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada angliyalik yozuvchi, shoir, jurnalist va sayohatchi Jozef Ryedyard Kiplingning fantastik asarlari to'plami "Jungli kitobi"dan olingan "Maugli" sarguzasht-hikoyasini o'zbek maktablarining 5-sinfida o'rganish borasida metodik tavsiyalar taqdim etilgan. "Adabiyot" darsligida asar qisqartirilgan holda taqdim etilgan bo'lib uning o'quv-didaktik tahlili jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi hamda farqli jihatlari, inson tabiati-yu taqdiri bilan hayvonot olamining o'ziga xos xususiyatlari, odamlar va hayvonlar orasidagi mutanosibliklar masalalari yoritilgan. Asarda ilgari surilgan haqiqatlarning o'zbek o'quvchilari ma'naviy kamolotiga ta'sirini ta'minlash yo'llari taqdim etilgan. Maqolada o'quv-didaktik tahlil metodidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: bosh mavzu, maqsad, vazifa, tasviriy vositalar, ijodiy ish, kitobxon idroki, sog'lom ma'naviyat, badiiy asar, tasviriy san'at, taqdir, tahlil, talqin.

**METHODOLOGY OF STUDYING REDYARD KIPLING'S "MAUGLY" IN
LITERATURE LESSONS**

Kunduzkhon KHUSANBOYEVA.

ORCID: 0000-0002-4125-9049.

Doctor of Pedagogical Sciences, professor.

Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of History and Philology,

Tashkent University of Applied Sciences.

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: qunduz56@gmail.com

Abstract. This article provides methodological recommendations for teaching Mowgli, an adventure story adapted from *The Jungle Book*, a collection of fantasy stories by the English writer, poet, journalist, and traveler Joseph Rudyard Kipling, in the 5th grade of Uzbek secondary schools. The work is presented in an abridged form in the Literature textbook, and its educational and didactic analysis highlights the common and distinctive features of universal and national values, the relationship between human nature and destiny and the characteristics of the animal world, as well as the parallels between humans and animals. The article also presents ways to enhance the influence of the ideas and truths advanced in the story on the spiritual and moral development of Uzbek students. The study employs the educational and didactic analysis method.

Keywords: main theme, objective, task, literary devices, creative work, reader perception, Islamic spirituality, literary work, visual arts, destiny, analysis, interpretation.

**МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ РЕДЬЯРДА КИПЛИНГА
«МАУГЛИ» НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ**

Кундузхон ХУСАНБОЕВА.

ORCID: 0000-0002-4125-9049.

Доктор педагогических наук, профессор.

Кафедра узбекского языка и литературы, факультет истории и филологии,

Ташкентский университет Прикладных наук.

Ташкент, Узбекистан.

E-mail: qunduzsa56@gmail.com

Аннотация. В данной статье представлены методические рекомендации по преподаванию произведения «Маугли», приключенческой истории, адаптированной из «Книги джунглей», сборника фантастических рассказов английского писателя, поэта, журналиста и путешественника Джозефа Редьярда Киплинга, в 5-м классе узбекских средних школ. Произведение представлено в сокращенном виде в учебнике литературы, а его педагогический и дидактический анализ выявляет общие и отличительные черты универсальных и национальных ценностей, взаимосвязь человеческой природы и судьбы, особенности животного мира, а также параллели между человеком и животными. В статье также представлены способы усиления влияния идей и истин, изложенных в произведении, на духовно-нравственное развитие узбекских школьников. В статье используется метод учебно-дидактический анализ.

Ключевые слова: основная тема, цель, задача, литературные приемы, творческое произведение, восприятие читателя, исламская духовность, литературное произведение, изобразительное искусство, судьба, анализ, интерпретация.

Kirish. O‘zbekistondagi umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Adabiyot” darsligini yaratishga asos bo‘lgan dasturda o‘quvchilar oldiga angliyalik yozuvchisi Redyard Kipling qalamiga mansub “Jungli kitobi” nomli hikoyalar to‘plamidan olingan “Maugli” sarguzasht-hikoyasini [Yo‘ldoshev, 2024, 46–74] o‘rganishga uch soat ajratilgan va bu jarayonda o‘quvchilar oldiga quyidagicha talablar qo‘yilgan: “O‘quvchilar asarning bosh mavzusini aniqlashadi. Mavzu yuzasidan xulosa chiqara olishadi. Asar matnidagi ochiq aytilgan (ba’zi hollarda tagma’noli) fikrlarni tushunadilar. Muallif qo‘llagan tasviriy vosita (o‘xshatish, kinoya)larni topadilar va ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning kitobxon idrokiga ta’sirini tushuntirib bera oladilar. Matndagi notanish so‘zlar ma’nosini lug‘atlar yoki boshqa manbalar, shuningdek, kontekstdan aniqlaydilar. Asar voqealarini tizimlashtira oladilar va ularni muammoli tahlil qila biladilar. Asar asosida ishlangan san’at asarlari (tasviriy san’at, film va multfilmlar)ning asar syujetidagi voqea yoki obraz (obrazlar)ni ochib berishdagi ahamiyatini biladilar. Ularni taqqoslashadi. O‘qilgan asarlar asosida ijodiy (esse, taassurot, ertak, hikoya va boshq.) ishlar yaratadilar” [Dastur, 2004, 44-b.].

Ushbu asarni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini adabiy ta’limning maqsadiga to‘g‘ri yo‘naltirishda quyidagi talqinga asoslanish taqozo etiladi: “Asarda Maugli timsoli va uning tabiatiga xos bo‘lgan fazilatlar. Yovvoyi hayvonlar hayoti tasviridagi o‘ziga xosliklar. Chag'alzor dunyosi tasvirining xususiyatlari. Odamlar va hayvonlarga xos bo‘lgan umumiy va farqli jihatlar. Sherxon va Ovchi Badeoning shumliklari hamda Mauglining samimiyati qiyosiy tahlili. Ona bo‘ri va Muassa timsollarida onalarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarning ifodalanishi”. Bu talqin o‘qituvchilarni amaliy-pedagogik faoliyatda har xil yo‘nalishlarga og‘ib ketishdan saqlaydi, adabiy ta’limning maqsadiga muvofiq tarzda ish olib borishga asos bo‘ladi.

Materiallar va metodlar. O‘qituvchi mazkur asarni o‘rganishga rejalashtirilgan birinchi darsda uning birinchi qismini ifodali qilib o‘zi (bunga darsning 17–18 daqiqasi ketadi) o‘qib beradi

[Yo'ldoshev, 2024, 46–55-b.]. O'quvchilar parchani o'z darslikalaridan o'qituvchiga ergashgan holda ichdan o'qib boradilar. Bu jarayonda o'quvchilar quloqlari orqali har qanday asarni ifodali o'qishga odatlanib borsalar, ayni zamonda, o'qituvchisiga ergashgan holda tez va to'g'ri o'qishni o'rganadilar. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida darslikda taqdim etilgan asarlar bilan bu tarzda tanishish jarayoni juda muhim amaliy-metodik tadbir hisoblanadi. Gap shundaki, beshinchi sinf o'quvchilari hali har qanday matnni ifodali o'qish ko'nikmasini puxta egallab ulgurmagan bo'lishadi. Qolaversa, nisbatan kattaroq hajmdagi asarlarni sekin o'qish asardan olinadigan taassurotlarni yo'qqa chiqarishi, qahramonlarni his qilish, ularga darddosh, tuyg'udosh va qayg'udosh bo'lish hissini minimal darajaga tushirib qo'yadi. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalar har qanday badiiy asarni o'qishdan ko'ra eshitishga moyilroq bo'ladilar. Eshitganda o'qilgan badiiy asarni tushunish, o'zgani his etish, qahramonlar shodligu qayg'ulariga sherik bo'lish jarayoni kuchliroq bo'ladi. O'qituvchining bu tutumi o'quvchilarda o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarining shakllanib ayni damda rivojlanib borishiga ham zamin tayyorlaydi.

O'qish asnosida o'qituvchi parchadagi o'quvchilar diqqati qaratilishi lozim bo'lgan barcha o'rinlarga qalam bilan belgi qo'yib ketishni eslatishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda o'quvchilar yozma matnni kino va multfilm bilan taqqoslash jarayonida ham, matnning o'quv-didaktik tahlili kechimida ham, o'z ijodiy faoliyatida ham qaysi o'rinlarga e'tibor qaratish kerakligini bilib boradilar. Oldilariga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish asnosida ham savol yoki topshiriqqa daxldor o'rinlarni osonlik bilan, ortiqcha vaqt sarflamay topa oladigan bo'ladilar.

Parchaning ifodali mutolaasidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarini bir necha lahzalarga taassurotlari bilan holi qoldirgani tuzuk. So'ng birgalikda istalsa, darslikning “Keling, suhbatlashamiz” ruknidagi savol va topshiriqlar ko'magida, istasa mazkur maqolada taqdim etilgan didaktik vositalar ko'magida parchaning o'quv-didaktik tahliliga kirishiladi. Mazkur asar ustida ishlash asnosida o'quvchilar dasturning: *“asarning bosh mavzusini aniqlashlari, mavzu yuzasidan o'z mustaqil xulosalarini chiqara olishlari va asarda ilgari surilgan yetakchi fikrlarni tushunishlari”* tarzidagi talabini bajarishlari uchun o'qituvchi tahlil jarayonida quyidagilarga urg'u berishi adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi. Ma'lumki, Maugli hikoyalariga inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar asos qilib olingan. Ya'ni Maugli hayvonlar orasida yashasa ham, insonlarga xos bo'lgan fazilatlarni saqlab qolishga harakat qilgan shaxs timsoli. U ikki olam – hayvonot olami va odamlar dunyosi, tabiat va sivilizatsiya o'rtasidagi inson sifatida tasvirlangan. Asardagi boshqa qahramonlar: Bagira donishmandlik va erkinlik ramzi, Balu tarbiya va bilim timsoli, Sherxon esa qo'rquv, kuch va tahdid ramzi sifatida tasvirlangan. Hikoyada ilgari surilgan do'stlik, jasorat, vatan, o'zaro mehr-oqibat va o'zlikni anglash singari umuminsoniy g'oyalar, ayni damda milliy qadriyatlar ham hisoblanadi. Adabiyot muallimi o'quvchilarining fikrlash tarzini savol va topshiriqlar ko'magida mana shu haqiqatlarni anglashga yo'naltirishi taqozo etiladi. Masalan: “1. Aytingchi, hikoyada Maugli taqdiri shakllanishidagi Bagiraning o'rni va vazifasi qanday tasvirlangan? Buni siz nimalarda ko'rdingiz? 2. Balu timsolining bo'ri bolalari va Maugli hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, nima deb o'ylaysiz? 3. Sherxonning o'zini tutishlariga, aytgan gaplariga qarab shaxsiga baho bering. U qanday odam timsoli? 4. Chiyabo'ri Taboqining xarakteri va tutumlariga diqqat qiling. Uning xarakteri sizda o'ziga nisbatan qanday munosabat uyg'otdi?” va hk. Bu savol va topshiriqlarni o'qituvchi **Edubaza.uz** platformasiga kirib u yerda asar mazmuni asosidagi suratlar bilan qiziqarli materialga aylantirishi va ko'rsatma shaklida ekranda namoyish etishi mumkin.

“Maugli” asarining janrini: shakl bo'yicha – hikoya; mazmunan – sarguzasht (qahramon har xil to'siqlarni yengib o'tadi) va turi bo'yicha – ertak yoki fantastik (gapiruvchi hayvonlarning mavjudligi) asar deyish mumkin. Buni o'qituvchi o'zi uchun bilib qo'yishi shart.

Muhokama. Bu sarguzasht-hikoyadan olingan parchani o'rganish jarayonida o'quvchilar oldilariga qo'yilgan dasturiy talablardan yana biri: *“Asar asosida ishlangan san'at asarlari (tasviriy san'at, kino va multfilm)ning asar syujetidagi voqea yoki obraz (obrazlar)ni ochib*

berishdagi ahamiyatini bilish va ularni taqqoslash"ni bajarishlari uchun o'qituvchi hikoya mazmuni asosida yaratilgan badiiy [3] va multiplikatsion[4] filmlarni ham ko'rsatmali material sifatida oldindan tayyorlab qo'yishi kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga mazkur asarning uch shakli: qog'oz-yozuv (darslikdagi), kino va multfilm (internet orqali) variantlari manbasini berishi shart. O'quvchilar asarning uchala variantini ziyraklik bilan taqqoslashlari uchun uy vazifasi sifatida mazkur darsni boshlashdan oldin ham, ikkinchi va uchinchi bandlari uyda o'qish uchun topshirilganda ham berib yuborishi yoki alohida eslatib o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Gap shundaki, muallim o'quvchilariga kinoni ham, multfilmni ham shunchaki voqealar rivojini kuzatish uchun emas, balki adabiy ta'limning maqsadidan kelib chiqqan holda asarning har ikkala variantini yozuvli matn bilan taqqoslash uchun berilayotganini ta'kidlashi joiz. Bu kabi taqqoslash uchun o'qituvchi yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar tuzishi va ularni xattaxtaga yoki o'quvchilarning ish daftariga yoxud telegram guruhiga yozib qo'yishi kerak bo'ladi. Shunda o'quvchilarning e'tibori uyga topshirilayotgan bu vazifaning mohiyatiga qaratiladi. Ya'ni o'quvchilar asarning ertangi tahlilida kino yoki multfilm bilan bog'liq shu savol-topshiriqlar ustida alohida ishlashini his etib o'qiydilar, tomosha qiladilar:

1. Mauglining tashqi ko'rinishi kitobda qanday tasvirlangan (*qorachadan kelgan, endigina atak-chechak qilishni o'rgangan, qip-yalang'och, jajjigina, do'mboqqina bolakay*)? Bu tasvirga kinoda to'liq amal qilinganmi? Bu tasvir multfilmda qanchalik aniq ifodalangan?

2. Asar matnida Maugli (*hech narsadan cho'chimaydi, hali sochi ham yo'q, bo'ringa ko'zlariga qo'rqmay tikiladi, unga kulib qaraydi*)ga tegishli tasvirlar; Ota Bo'ri (*qayerda ensasi qotib, qayerda g'azab bilan, zarur bo'lib qolganda tuxumni ham darz ketkazmay tishlay oladigan, ko'zlaridan g'azab chaqnab turgan*)ning tasviri bilan bog'liq gaplar; Ona Bo'ri xarakteriga xos (*sipolik va mehribonlik aks etgan o'rinlar, uning zulmat ichida ikki ko'kimtir oyga o'xshash ko'zlari*) bo'lgan sifatlari tasviri; xushomadgo'y Taboqining (*hurpaygan dumli pastakkina bo'yi, qayerda xushomadgo'ylik qilganlari, qayerda ming'illab gapirgani, tirjayib yerga o'tirib, suyakni qirsillatib g'ajiy ketishi, bo'rilarining xijolat chekkanlarini ko'rib, ich-ichidan quvonishi, zaharxanda ohangda ustomonlik bilan, chiyillagan ovozda gapirishi*); Shexxonning (*alamzada, qisqa-qisqa na'rasi, na'rasining bo'g'i irillashga aylanishi, alamzada irillashi, o't chaqnab turgan ko'zlari*) xarakteriga xos bo'lgan jihatlari tasviri; Akellaga xos bo'lgan (*kuchli va chaqqon, to'daning yetakchisi, so'qqabosh kabi*) sifatlari; Balu (*tanbal keksha, orqa oyoqlarida tik tura oladigan, bo'ri bolalarini changalzor qonunlariga o'rgatadigan, faqatgina yong'oq, asal va ildizlar bilan ovqatlaniganligi tufayli ko'ngli qayerni tusasa, shu yerda sanqib yurardigan*)ning tasviri, Bagiraning (*tim qora terisida oq nuqtalar oy yog'dusida qora selonga chizilgan oq hoshiyalardek jilvalanishi, jasurligi, yarador fildek dovyurakligi bilan butun jungliga dong'i ketganligi, miyovlagan ohangda*) gapirishlari qanday tasvirlanganu badiiy film va multfilmda bu holat hamda vaziyatlar qanchalik yorqin aks etganligiga e'tibor qiling. Taqqoslang.

3. Jungli tabiati tasviri (*ko'kda charaqlab turgan oy Bo'rig'orning og'zini yoritib yuborgan; bu, yuzlab bo'rilar yashirinishi mumkin bo'lgan va katta-katta xarsangtoshlar bilan qoplangan tepalik va hk.lar*) asar matnida va filmlarda qanday ifodalangan? Diqqat bilan kuzating: badiiy asar va uning mazmuni asosida yaratilgan har ikkala san'at namunasida matndagi tasvir bilan mutanosiblik qanchalik saqlab qolingan?

4. Qahramonlarning yuz ifodalari, gapirishlari va o'zlarini tutishlari ekranda ham matndagidek aks etganmi?

Bu savol-topshiriqlar o'qituvchiga namuna sifatida berilyapti. Muallim ularni sinfdagi o'quvchilari imkoniyatlaridan kelib chiqib soddalashtirishi yoki vaziyatga qarab murakkablashtirishi mumkin, albatta. Ijodkor o'qituvchilar internet orqali **MagicSchool.ai**, **Eduaide.ai**, **Diffit**, **Genially.com** singari platformalarga murojaat qilib mavzuga doir interaktiv dars ishlashmalaridan, **Flippity.net**, **Learningapps.org** **Wayground.com**, **Tarsiamaker.co.uk** kabi platformalarga talab-topshiriqni mantiqan va mazmunan to'g'ri belgilab murojaat qilish orqali

o'quvchilarni qiziqtiruvchi raqamli topshiriqlar, har xil o'yinlar tizimidan oqilona foydalanishlari mumkin. Albatta, bu tutumlar adabiyot o'qituvchisidan ingliz tili yoki internet-tarjimonlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

O'quvchilarga berilgan savollar va har xil qiziqarli-raqamli topshiriqlar ularni o'z-o'zidan kinoni ham, multfilmni ham shunchaki tomosha qilishga yo'l bermaydi. Tomosha paytida ularni ziyraklikka undab turadi. O'qituvchining bu tutumi adabiy ta'limning maqsadiga xizmat qilgan holda o'quvchilar shaxsida bir qator ijobiy sifatlarni shakllantiradi, ayni zamonda, o'ziga xos ko'nikmalarning egallanishiga ham asos bo'ladi. O'qituvchi keyingi darsda shu savollar ustida ishlashlarini ta'kidlab qo'yishni unutmasa, kifoya. U yog'ini o'quvchilar o'zlari har biri qo'lidan kelganicha va aqli yetganicha bajarib keladi. Bu taqqoslash jarayoni uchala dars uchun ham birdek xizmat qiladi. Ya'ni mazkur savol-topshiriqlar uchala qismdagi voqea-hodisalar tasviri misolida o'rtaga tashlanishi va o'quvchilarning javoblari olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, asarini, u nasrda bo'ladimi, nazmdami, har bir ijdkor o'z iqtidori, iste'dodi, bilimi, saviyasi, tajribasi, dunyoqarashining kengligi va ma'naviyatining sog'lomligi darajasiga asoslangan holda yaratadi. Yozilganlarning mazmun-mohiyatiga kirish, undagi yetakchi fikrlar, ilgari surilgan haqiqatlarni anglash har bir kitobxonning, maktab adabiy ta'limini tashkil etish jarayonida esa adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, kasbi va o'quvchilariga muhabbati, bilimi, istalganlarni o'quvchilariga qay darajada yetkaza bilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Ijodkor badiiy yaratig'i bilan o'qirmanni, o'qituvchi esa shu bitik bilan tarbiyalanuvchilarini, avvalo o'zining, qolaversa ijodkorning darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, adabiyot darslari – ko'ngil darslarini tashkil etishda o'qituvchining ham, ijodkorning shaxsiy sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rni kelganda shuni aytib o'tish joizki, kechagi jamiyatda o'quvchi *ijrochi* – o'qitilishi kerak bo'lgan obyekt edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida o'quvchilarni *ishtirokchi* – subyekt darajasiga ko'tarishga harakat qilindi. Bugungi o'quvchilar esa *iste'molchi* – bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojmand, talabgor darajasiga ko'tarilmoqda. Albatta, bugun ham ta'lim amaliyotida, xususan, davlat umumta'lim maktablari (prezident va ijod maktablari bundan mustasno, albatta) amaliy faoliyatida o'quvchilar orasida ijrochilar ham, ishtirokchilar ham, iste'molchilar ham mavjud. Bu holat o'qituvchilarning kompetentlik darajasi bilan bog'liq.

Bugun iste'molchi darajasiga ko'tarilayotgan o'quvchilar – dunyo va jamiyatdagi o'zgarishu rivojlanishlarning, texnika-texnologiyalarning taraqqiyoti kechimida o'z o'rnini belgilab olish kerakligiga aqli yetgan, buning uchun o'qish zarurligini anglagan tarbiyalanuvchilar. Ularni bunga hayot, jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti majbur qilyapti. Shu ma'noda, o'qituvchilar, xususan, adabiyot muallimlari o'quvchilarning hayotiy ehtiyojini qondira oladigan, uni shu faoliyatga to'g'ri yo'naltira biladigan darajada kompetentli bo'lishga majburlar. Muallimlarning bilimi, saviyasi, dunyoqarashi va ma'naviy to'kisligi, ayni paytda raqamli texnologiyalardan oqilona foydalana bilishi nafaqat har bir o'quvchi, balki shu o'quvchilar timsolida butun boshli millat kelajagi taraqqiyotining asosidir. Bugun iste'molchi – bilimga talabgor bo'lgan oz sonli o'quvchilar maktab ta'limidan qanoatlanmay repetitorlarga qatnashi zamirida mana shu haqiqat mavjud.

Adabiyot o'qituvchisi mazkur asarni o'rganishdan oldin o'zi uchun bilib qo'yishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan yana biri turkiy xalqlarning bo'riga munosabati, urg'ochi bo'rini o'zlarining ajdodlari deb hisoblaganlaridir. Aytish joizki, ayrim (masalan, Shimoliy Kavkaz)dagi turkiy xalqlar odatiga ko'ra, agar bolaga bo'rining yuragi yoki jigari yedirilsa, bola kuchli va mard bo'lib o'sadi. Kasal bo'lgan bola bo'rining po'stiniga o'ralsa yoki oyog'i tagidan o'tkazib olinsa, shifo topadi va hk.

Bundan tashqari, beshikka bo'ri terisidan qilingan po'stin bo'lakchasi yoki bo'ri og'zidagi suyakni osib qo'yish irimi ham bo'lgan. Momolar bo'ri junidan yasalgan kokilni, bo'ri suyagi, teshilgan oshig'i yoxud tirnoqlarini boylab, beshikka ilib qo'yishgan. Turkiy xalqlar nazdida bo'ri

har xil ins-jinlarning, yovuz ruhlar va shaytonning ashaddiy dushmani hisoblangan. Qariyalar gapiga ko'ra, "agar bo'rilar bo'lmaganida, ins-jinlar va shaytonlar ko'payib ketardi". Ma'lum bo'lishicha, bo'rining ko'zlari pirpiramaydi, shuning uchun tirik jonzorlar ichida faqat bo'rigina shaytonni ko'ra oladi. Shaytonlar va ins-jinlar bo'ridan qo'rqadilar, bo'ri terisidan tikilgan po'stin yoki bo'ri terisi osib qo'yilgan uyga kirmaydilar. Shuningdek, ajdodlar yo'lda bo'rini uchratishsa, buni yaxshilik alomati deb hisoblaganlar.

Slavyan xalqlarining urf-odat va marosimlarida ham bo'ri timsoli uchraydi. Masalan, avarlarda dehqonchilikda birinchi egat bayrami paytida "yasangan bo'ri" ma'lum xatti-harakatlarni bajarib, yerni hosildor bo'lishini ta'minlagan. Kavkazdagi turkiy xalqlar og'zaki ijodida ona bo'ri yoki bo'rilar oilasida katta bo'lgan odamlar haqidagi afsonalar uchraydi. Rivoyatlarda ayrim turkiy qabilalarning ajdodlari "osmonli ona bo'ridan" tug'ilganligi haqida so'z yuritiladi. Bo'rining boshi qadimgi turklarning bayrog'ida tasvirlangan bo'lib, dushmani larzaga keltirgan va hk. [5].

Ayrim turkiy xalqlarning an'anaviy e'tiqodlari va epik asarlarida bo'ri bugungi kungacha e'zozlanadigan hayvon hisoblanadi. Bo'ri – turkiy tillarda qashqir, bo'ri; mo'g'ullarda – shino yoki chino deb ataladi. Qadimgi turklar bo'rini Ko'k Kurt deb atashgan. "Ko'k" – moviy, ko'k, osmonli. Kurt – qutulish, biron narsadan xalos bo'lish, qutqarish. Ya'ni, moviy bo'ri – turkiy xalqlar uchun muqaddas hayvon, Osmon Xudosi – ularni nobud bo'lishdan asrab qolgan Ko'k Tangrining elchisidir. Turkiy xalqlarda bo'rining tishi, ayniqsa qoziqtishi, ko'z tegishiga qarshi tumor rolini bajargan. Bo'ri tishlari, tirnoqlari, terisi balo-qazolardan saqlaydigan tumor sifatida yangi tug'ilgan chaqaloqlarning beshigiga boylangan, ayrim urug' va qabilalarda bugungi kungacha ham tumor sifatida bolalar va kattalarning ust-boshlariga taqib qo'yiladi, devorga osiladi va hq. Bugungi kunda bunday tumorlarni o'zbek bozorlarida ham uchratish mumkin [5].

Angliyalik yozuvchisi Redyard Kipling qalamiga mansub "Jungli kitobi" nomli hikoyalar to'plamidan olingan "Maugli" sarguzasht-hikoyasida tasvirlangan bo'rilar timsoli ham, ularning tabiatiga xos xususiyatlarning batafsil tasvirlanishi ham hind xalqi tarixida bo'rilarning o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligiga ishoradir. Darsda o'qituvchi va o'quvchilar asarning uch xil variantidagi o'ziga xosliklarni muhokama qilish jarayonida mana shu bilimlarga ham o'rniga qarab murojaat qilishi mumkin. Asarning o'quv-didaktik tahlilida o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilariga quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin. Ularning yuqorida sanab ko'rsatilgan raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda tizimlashtirilishi esa dars samaradorligining garovidir. Bu ham bevosita adabiyot muallimining kompetentligiga borib taqaladi:

1. O'rmon hayoti haqida ko'rgan kino yoki multfilmingizda nimalar gavdalantirilganligini eslashga urinib ko'ring. O'rmondagi hayvonlar hayoti va ularga daxldor asosiy xususiyatlarni sanab ko'rsating.

2. Yovvoyi hayvonlar hayoti bilan uy hayvonlari hayotini taqqoslang. Har ikki jonvorlarning turmush tarzidagi o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.

3. Taboqi ismli chiyabo'ri xarakteriga xos xususiyatlarni ajratib sanab bering. Nima deb o'ylaysiz, uning xarakteriga xos bo'lgan bu jihatlari fazilatmi, illatmi? Buni qanday aniqladingiz? Fikringizni asoslashga urinib ko'ring.

4. Nima deb o'ylaysiz, Taboqi bolalarini maqtaganda bo'rivachchalarning ota-onasi nima uchun hijolat bo'lishdi? Bu ularga xos qanday sifatdan dalolat beradi? Taboqi bu ishni nima uchun qildi deb o'ylaysiz?

5. O'ylab ko'ringchi, Sherxonning ov joyini o'zgartirganidan Ota Bo'ri nega darg'azab bo'ldi? Ayni shu holat Ota Bo'ri tabiatiga xos bo'lgan qaysi jihatlarni namoyon qiladi?

6. Asarda Ota Bo'ri tomonidan inson barcha mavjudotlar ichida eng nozigi va ojizi sifatida e'tirof etilgan. Sizningcha, u nimaga asoslanib shunday dedi? U haqmi? Fikringizni asoslang.

7. Ota bo‘rining odamga hujum qilish ovchi sha’niga mos kelmasligi haqida fikriga nima deysiz? Ayting-chi, “ovchi” deyilganda kim yoki nima nazarda tutilayotir? Insonlar ham hayvonlarni ovlash jarayonida Ota Bo‘ri kabi fikrlashadimi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

8. Sherxonning odam bolasini unga berish haqidagi talabiga Ona Bo‘rining bergan javobini qayta o‘qing. Bu haqda qanday fikrdasiz? Nega Ota yoki Ona bo‘ri Sherxon qahridan qo‘rqib, odam bolasini unga topshirishmadi? Bu, Sizningcha nimadan dalolat beradi?

9. Sherxon nega Ota Bo‘ri bilan emas, aynan Ona Bo‘ri bilan olishishdan hayiqdi deb o‘ylaysiz? Sherxon qo‘rquviga sabab faqat Ona Bo‘rining dovyurakligi tufayli “iblis” laqabini olganimi yoki boshqa sabablar ham bo‘lishi mumkinmi? Fikringizni izohlang.

10. Esilasangiz, Changalzor yoki to‘da qonunlaridan misollar keltirilgan. Hayvonlarning ham ma’lum qoidalarga bo‘ysunib yashashi Sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Javoblaringizni asoslang.

11. Mauglining to‘dada qolishini yoqlab chiqqan ota-ona bo‘rilar, Balu va Bagira singari yovvoyi hayvonlarning shaxsiga baho bering. Har biring o‘z tutumidan maqsadi nima ekanini aniqlashga urinib ko‘ring. Fikringizni asoslang.

12. Marglining to‘dada qolishini yoqlab qiy-chuv qilgan boshqa bo‘rilar bilan ota-ona bo‘rilar, Balu va Bagirani taqqoslang. Ularning farqi nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.

13. Akelaning quyidagi gaplariga diqqat qiling: «*Biz yaxshi ish qildik! Odamlar va ularning farzandlari aqlli maxluq. Vaqti kelib, u bizning tengsiz ko‘makdoshimiz bo‘lib qolishi turgan gap*». Bu fikrga o‘z munosabatingizni bildiring.

14. Quyidagi gapga diqqat qiling: «*Go‘dakni olib ket. Uni Erkin xaloyiq farzandlari nomiga munosib qilib tarbiyala*». Bu gapni kim aytdi, Sizningcha? Undagi «*erkin xaloyiq*» iborasi nimani anglatishi haqida o‘ylab ko‘ring. Siz hayvonlar va odamlarning erkinligini qanday tushunasiz?

Albatta, bu savol-topshiriqlarga sinfdagi hamma o‘quvchilar javob berishlari shart emas. Ayrim javobi topilmagan savollarni, bajarilishi uddalanmagan topshiriqlarni o‘qituvchi ochiq qoldirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Gap shundaki, adabiy ta’lim uchun o‘quvchilar oldiga asardagi yetakchi masalalar, hayvonlar olamiga xos bo‘lgan qadriyatlar, o‘zaro oqibat, yaxshilik va yomonlik, erk va mustaqillik, insonlar va yovvoyi hayvonlarga xos bo‘lgan sifatlar orasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar, fazilatlar va illatlarni farqlashga yo‘naltiruvchi, mustaqil va mantiqli fikrlashga, fikr-xulosalarini asoslashga undovchi vazifalarning qo‘yilishi – muhim. Oldilariga qo‘yilgan savolga javob topish yoki topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarning o‘yga tolislari, garchi javob bera olishmasa-da, adabiy ta’limda katta ahamiyat kasb etadi. Bu savol yoki topshiriqlarda ko‘tarilgan masalalar o‘quvchilarning ongida, ruhiyatida qoladi. Ular bu haqda darsdan keyin o‘ylab yurishlari mumkinligi ham ehtimoldan holi emas.

Sinfdagi o‘quvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqib ularni soddalashtirish yoki murakkablashtirish ham o‘qituvchining ixtiyorida, albatta.

Asarning ikkinchi qismi [Yo‘ldoshev, 2024, 56–64-b.] keyingi darsgacha o‘qib kelish uchun uyga vazifa sifatida topshiriladi. Mazkur asarni o‘rganishga rejalashtirilgan ikkinchi dars shu paytgacha o‘tilgan darslardan ma’lum darajada farqlanadi. E’tibor qaratilishi joiz bo‘lgan narsa shuki, ayrim o‘quvchilar Maugli haqidagi kino yoki multfilmni ko‘rganlaridan keyin asarni o‘qigilari kelmay qolishi mumkin. Sababi – ularning o‘qish tezligi asarning mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatini bermaydi. Talab darajasida o‘qilmagan har qanday matnni o‘qib tushunish va undan zaqlanish minimal darajada bo‘ladi. O‘qituvchi buni inobatga olishi va har qanday vaziyatga tayyor turishi kerak bo‘ladi.

Asarni sinfda muhokama qilishda o‘quvchilar dasturning: “*Asar voqealarini tizimlashtira oladi va ularni muammoli tahlil qila oladi*” tarzidagi talabga javob bera olishlari uchun o‘qituvchi mazkur bo‘lim asosida muammoli savol yoki muammoli topshiriq tayyorlab qo‘yishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tabiiyki, bu jarayonda ham o‘qituvchi sun’iy intellektga murojaat qilishi mumkin.

Ikkinchi darsda ikkinchi bo'lim mazmuni asosida tayyorlangan **muammoli masalalar** ustida ishlanadi:

- 1) *"Maugli junglida qolishi, odamlar orasiga ketmasligi kerak edi"*;
- 2) *"Erkinlik uchun kurash odamning qudratligi timsoli emas"*;
- 3) *"Haqiqiy oila qon bilan emas, mehr bilan belgilanadi"*.

Qo'yilgan bu muammolar ham o'qituvchiga bir namuna sifatida taqdim etilgan. O'qituvchi yuqoridagi elektron manbalardan har xil mazmundagi muammolarni topishi yoki **Edubaza.uz** platformasida o'quvchilarining imkoniyatlariga moslashtirib o'zi shu kabi muammoli savol yoki topshiriqni yaratishi ham mumkin. O'qituvchi ularni o'quvchilarining imkoniyatlariga qarab soddalashtirishi yoki murakkablashtirishi ham mumkin. O'quvchilar oldilariga qo'yilgan birinchi muammoli masalaning yechimini izlash jarayonida Maugli shunday qilsa, nimalar o'zgarishi mumkinligini, unda odamlar sifatlarining uyg'unayotganligi, odamlikka xos bo'lgan tuyg'ular baribir qachondir uni insoniyat orasiga tortishini aytishlari mumkin. O'quvchilar Maugliga – yovvoyi hayvonlar orasida, bo'rilar tarbiyasi bilan katta bo'lgan bolaga odamlar orasida yashash ham oson bo'lmashligi borasida o'z aqliy imkoniyatlari darajasida soddagina mulohaza yuritishlari va shaxsiy xulosalarini chiqarishlari tabiiy. Har ikkala holatda ham Mauglining keyingi hayoti qanday kechishini bolalar tasavvurlari mahsuli bo'lmish ijodiy ishlari mazmunida bilish mumkin.

O'quvchilar oldiga qo'yilgan har qanday muammo ularni mustaqil-mantiqli fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchilarning har biri Maugli ketmasa nimalar bo'lishini, to'dada nimalar qilishi mumkinligini o'zlaricha tasavvur qilishlari tabiiy. O'qituvchi tomonidan berilgan qo'shimcha savol yoki topshiriqlar ko'magida junglida qolishining ijobiy va salbiy tomonlarini ochishga undaladilar. Muammoning yechimi qanday bo'ladi – bu har bir sinfdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni kimlardir uning qolaverishi kerakligiga to'xtaladilar, qay bir o'quvchilar uning ketishi to'g'ri ekanini birgalashib yechim sifatida taqdim etadilar va muammoning yechimi borasida umumlashgan holda bir to'xtamga keladilar. Muammoning yechimi qanday bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilarning fikrlari qanchalik mantiqli ekanligi, qanday hayotiy va badiiy asoslarga, jungli qonunlariga qanchalik monand ekanligi bilan belgilanadi va baholanadi. Shu tariqa ularda muammo va uning yechimlari borasida tasavvur paydo bo'ladi va uni yechish bilan bog'liq ko'nikma shakllana boradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, adabiy ta'limda badiiy asarlar mazmuni asosida chiqariladigan mutlaq haqiqat yo'q. Har qanday badiiy asar tahlili asnosida o'quvchilar mulohaza yuritib, o'z fikrlarini aytib, qarashlarini asardan misollar keltirgan holda asoslab va dalillab berayotgan ekan, mana shu har bir o'quvchining o'z badiiy haqiqati bo'ladi. Bu haqiqat o'qituvchiga yoki boshqa bir shaxslarga ma'qul kelishi yoki yoqishi shart emas. Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarining badiiy haqiqati bilan hisoblashishi shart. Mabodo, o'quvchi chiqargan xulosa-haqiqat odamiylik mezonlariga mutlaqo zid bo'lgan taqdirda ham o'qituvchi uning shashtini qaytarmasligi, xulosasini sinfdagi boshqa o'quvchilar hukmiga havola qilgani adabiyot o'qitish metodikasi ilmining, maktab adabiy ta'limining maqsadiga muvofiq bo'ladi. Har bir adabiyot o'qituvchisi mana shu haqiqatni yaxshilab ham ruhiyatiga, ham ongiga joylab olishi maqsadga muvofiqdir.

Agar *"Erkinlik uchun kurash odamning qudratligi timsoli emas"* nomli "qitilovchi" muammo tanlansa, Maugli bu borada ham albatta g'alaba qozonishi mumkinligini, chunki unda har qanday hayvondan farqli o'laroq aql, g'urur va sha'n borligini, buning ustiga, u bo'rilar oilasida dovyurak etib tarbiyalanganligini aytib fikrlarini asoslashar. Gap shundaki, ruhan qudratli bo'lmagan inson uchun erkinlikning ham, qullikning ham farqi yo'q. Chiyabo'riga o'xshab qornidan boshqa tashvishi bo'lmay, har kimga yaltoqlanib yashayveradi. Maugli esa hech qachon bunday yasholmasdi. Qudratli kishilargina erk uchun, mustaqillik uchun kurasha biladilar. O'quvchilarning ichki muvozanatini buzishga qaratilgan mazkur teskari muammoning mohiyatiga kirgan o'quvchilar bu haqiqatni anglab yetadilar. Mauglining g'alabasiga ishonch bildiradilar.

Buni ham bevosita dars jarayoni ko'rsatadi, albatta. Oldilariga qo'yilgan har qanday muammoning yechimi jarayoni o'quvchilardan mustaqil va mantiqli mulohaza yuritishni, hech qayerda yozilmagan haqiqatlarni kashf etishni va qarashlarini asoslashni taqozo etadi. O'quvchilarning shu jo'ngina qarori, xulosasi adabiy ta'lim uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi muammoli masala: *"Haqiqiy oila qon bilan emas, mehr bilan belgilanadi"* tanlanganda ham do'stlik, do'stlarning o'zaro mehribonligi, o'zaro oqibati bilan baribir g'alaba Maugli tomonida bo'lishini o'quvchilar anglashar va bu borada fikrlashib bu muammoli masalaning ham yechimini topishar. Bu kabi natijadan o'quvchilarning o'zlari ham g'alaba nashidasini tuyadilar va bu muvaffaqiyatlari ularning keyingi faoliyatiga asos bo'lishi mumkin. Chunki g'alaba nashidasi yoqimli va insonda o'ziga yoqimli bo'lgan bu hisni qayta-qayta tuyish ehtiyoji mavjud. Shu ehtiyoj o'quvchilarni yangi g'alabalar va kashfiyotlar sari undaydi. Dars jarayonini yanada qiziqarli tashkil etish uchun zamonaviy o'qituvchi asardagi voqealar tasvirini 360 darajali realistik 3D tasvirga aylantiruvchi *Luma.ai, Skybox.ai, Meshy.ai, Krea.ai* kabi sun'iy intellekt platformalarining xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

Angliyalik yozuvchisi Redyard Kipling qalamiga mansub "Jungli kitobi" nomli asardan olingan uchinchi parcha [Yo'ldoshev, 2024, 65–74-b.] ham uyda o'qib kelinadi va sinfda muhokama qilinadi. Darslikning "Keling, suhbatlashamiz" ruknida bob mazmuni asosida tahlil uchun taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida hamkorlikda ish boshlanadi: «1. Mauglining odamlar tilini ham tez o'zlashtirishiga sabab nima deb o'ylaysiz? 2. Maugli nima uchun odamlarni ahmoq hisoblab, "kulrang maymun" deb baholagan bo'lishi mumkin? 3. Maugli odamlar orasida: «...bu ishlarning barchasi meni ko'rikdan o'tkazgan To'dadagilarning harakatiga juda ham o'xshab ketadi! Men chindan ham odamzod ekanmanmi, chinakam odamga o'xshashim kerak!» degan qarorga kelgan edi. O'ylab ko'ringchi, nega u bu qarorida qat'iy turmadi? 4. Messuaning Maugliga birdan ijobiy munosabatda bo'lishiga asosiy sabab o'g'lini kichikligida yo'lbars olib qochganimi yoki bunga boshqa sabablar ham bor deb o'ylaysizmi? 4. Kohin va Baldeo singari obrazlar tasviri qanday xarakterdagi insonlarni ko'rsatib beradi? 5. Mauglining: "Kishilar gaplashadigan tilni tushunmasang, odamman deb yurishning nima foydasi bor?" tarzidagi o'yiga diqqat qiling. Bu fikrning mag'zini chaqing. 6. Kulrang Og'aning «Bo'ri ekaningni unutib qo'y-maysanmi? Odamlar seni o'z qarindoshlaringni unutib yuborishga majbur qilasmikinlar?» tarzidagi xavotiri, Sizningcha, qanchalik o'rinli? Maugli shunday qilishi mumkinmi, nima deb o'ylaysiz? 7. Mauglining Sherxonni o'ldirishdan asosiy maqsadi qasos olish edimi yoki bunga boshqa sabablar ham bor deb o'ylaysizmi? Ularni sanab bering. 8. Maugli Sherxon haqida: «...u ovqatlandimi, yo och qorin bilan ov qilmoqchimi?» – deb so'radi. Nima deb o'ylaysiz, Sherxon och bo'lganda, Maugli u bilan kurashga chiqarmidi? Nega shunday deb o'ylaysiz? 9. Mauglini eng og'ir vaziyatlarda qo'llab-quvvatlab turganlarni sanang. Ular nega shunday qilgan bo'lishi mumkin? 10. Sherxonni yo'q qilish rejasini tuzgan Mauglining zehniga baho bering. Bunda unga qaysi ko'nikmalari yordam berdi deb o'ylaysiz? 11. Asarda: «Shu payt Rama bir qoqildiyu qandaydir yumshoq narsani bosib o'tdi», degan jumla bor. Sizningcha, bu yumshoq narsa nima bo'lishi mumkin? Nega shunday deb o'yladingiz? 12. Asarda Maugli tilidan aytilgan: «O'tgan safar odam bo'lganim uchun haydaldim. Bu gal esa meni bo'ri deb quvlamoqdalar», degan jumla bor. Nima deb o'ylaysiz, bu gap nimasi bilan Mauglining nafsoniyatiga tegdi? Bu gapning zamirida qanday haqiqat bor? 13. Bo'rilar: «Qonunsizlik jonimizga tegdi! Yana qadimgidek Erkin xaloyiq bo'lib qolaylik!» deganda nimani nazarda tutishgan, sizningcha? 14. Ayting-chi, Maugli nima uchun odamlar orasida ham, hayvonlar orasida ham qololmadi? Fikringitzni asoslang. Bu ish jarayonida ham o'qituvchining raqamli texnologiyalar yordamiga murojaat qilishi o'quvchilarining adabiyot darslariga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi, ularni sun'iy intellekt xizmatlaridan oqilona foydalanishga yo'naltirishi tabiiy.

Hikoya mazmuni bo'yicha: *"O'qilgan asarlar asosida ijodiy (esse, taassurot, ertak, hikoya va boshq.) ishlar yaratadi"* tarziidagi dasturiy talab esa uy vazifasi sifatida ham, darslikda taqdim

etilganidek loyiha ishi shaklida ham bajarilishi mumkin. Bu vazifa har uchala dars oxirida uch xil shakldagi uy vazifasi sifatida ixtiyoriy ravishda, albatta, ya'ni tanlash imkoniyati bilan beriladi: 1) "Mauglining bo'rilar oilasiga kelib qolishi" mavzusida esse yozish; 2) "Maugliga maktub" yo'llash; 3) "Asardagi menga yoqqan sahifa" mavzusida taassurot insho yozish; 4) "Mauglining keyingi hayoti" mavzusida hikoya yoki ertak yaratish.

O'quvchilarini bir xillikdan yoki takrorlardan zerikib qolishini istamagan mahoratli o'qituvchi dars jarayonini – asarning o'quv-didaktik tahlilini samaraliroq tashkil etish uchun kino va multfilmdan savol va topshiriqlarga daxldor epizodlarni ekranda namoyish etishi mumkin. Yoki asardan shu vazifalarni bajarishga asos bo'ladigan o'rinlarini o'zi qayta o'qib berishi mumkin. Albatta har ikkala holatda ham zarur o'rinlarni oldindan belgilab, tayyorlab qo'yish, o'quvchilarni mustaqil va mantiqiy mulohaza yuritishga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar tayyorlab qo'yishi kerak bo'ladi.

Darslikda «O'zimiz asar yozamiz!» ruknida loyiha ishi taqdim etilgan. Unda: «*Sarguzasht yoki hajviy yo'nalishda kichik asar yozish*» vazifasi qo'yilgan. Dars oxirida o'qituvchi bu loyiha ishi borasida ham o'quvchilariga keng miqyosda tushuncha va yo'nalish berishi kerak bo'ladi. O'quvchilarga o'quv yilining boshlarida Abdulla Oripov ijodidan namunalar o'rganilgandan keyin taqdim etilgan birinchi loyiha ishi nisbatan soddaroq edi va u o'quvchilardan ortiqcha aqliy hamda ruhiy zo'riqishni talab qilmas edi. Mazkur vazifa – badiiy asar yaratish ishi ijodiy fikrlashni, kashfiyotlar qilishni, o'quvchidan fantaziyasi va xayolparastlik ko'nikmalarini ishga solishni taqozo etadi. Asarni, muqovani bezashda o'quvchilar qiynalmasliklari mumkin, lekin uni yozish – yaratish mashaqqatini qabul qilish va ijod iztiroblarini boshdan kechirgan holda birorta badiiy asar yaratish o'quvchidan ham aqlan, ham ruhan zo'riqishni taqozo etadi. Shu bois bunday loyiha ishini o'qituvchi o'quvchilariga ixtiyoriy vazifa sifatida topshirgani durust bo'ladi. Bunday vazifa ijodiy qobiliyati bor bolalarning ularga Alloh tomonidan berilgan iste'dodni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa. Xullas, adabiyot o'qituvchisi har bir darsni tashkil etishda sinfdagi o'quvchilarning aqliy-intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos keladigan texnologiya, metod va usullarni, o'quvchilarini ijodga yo'naltiruvchi raqamli texnologiyalarni o'zi tanlashi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldashev Q. B., Kambarova S. I., Yusufjonova N. N., Tuxliyeva D.B., Olimjanov O. O. Adabiyot 5-sinf (1-qism). Darslik / Q. B. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fani o'quv dasturi. – Toshkent, 2024.
3. https://yandex.ru/video/movies/entity?onto_id=ruw6705050
4. <https://www.youtube.com/watch?v=EARPtxqdWOE>
5. https://www.researchgate.net/publication/352855825_Turkij_halklarning_totemistik_va_etnomifologik_karaslarida_buri_timsoli